

## MUSTAQILLIK DAVRI AYRIM QISQARTMA OTLARNING TARKIBI VA MAZMUNI HAQIDA

**Saidova Xurshida Faxriddin qizi**

*BuxDU mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek tilida mustaqillik davrida yuzaga kelgan qisqartma so'zlar, ularning yuzaga kelishi, taraqqiyoti, qisqartmalarning tarkibiy qismlari, mazkur hodisaning mavzuviy guruhlari va o'zlashishi haqida fikr yuritilgan. Xususan, maqolada yaqin yillarda yozma nutqqa kirib kelgan qisqartmalar tahlilga tortilgan.

**Kalit So'zlar:** *abbreviatura, qisqartma so'z, mavzuviy guruh, inglizcha qisqartma, ruscha qisqartma, o'zlashma qisqartmalar, g'aliz qisqartma*

O'zbek tili leksikasi qisqartma so'zlar hisobidan ham ma'lum ma'noda boyib bormoqda. Qisqartma tarkibli neologizmlar to'liq yozilish bilan birga, qisqartirib ham qo'llanadi, bunday qisqartmalarga "abbreviatura" deyiladi [1,45]. Tilshunoslikda abbreviatura hodisasi so'z birikmalarini qisqartirish orqali hosil qilingan birikmalar hisoblanadi. Tilshunoslikda qisqartma so'zlar – abbreviatura bo'yicha ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Bunda O. Esperson, G.Kannon, L.Blumfild, N.N.Alekseeva, V.P.Korovushkin, L.B.Tkacheva, V.V.Borisov, I.V.Arnold, M.T.Irisqulov, A. Hojiyev kabi olimlarni bayon etib o'tish mumkin[3,105].

Qisqartma so'z va birikmalar tarixi ilk yozuv paydo bo'lishi bilan birga shakllagan. Ko'pgina olimlar so'zlarni qisqartirish va uni tarkibli nom sifatida qo'llash birinchi yozuvning paydo bo'lishi – eramizdan avval IV asrda Qadimgi Shumerlar tilida boshlanganligini bayon etishsa, qadimgi Yunonistonda eramizdan avval III–II asrlarda mazkur hodisa faol qo'llanilganligini ta'kidlashadi.

Ilk o'rta asrlardan (V-XI) boshlab, deyarli barcha tillarda qisqartmalar keng qo'llanila boshlandi. Masalan, Yevropada lotin tilida so'zlashuvchilar deyarli qolmagan bo'lsa-da, undagi qisqartmalar fransuz, ingliz va boshqa tillarda faol qo'llanilib kelinmoqda[2,56]. Ushbu jarayon Sharq davlatlarida, ayniqsa, o'sha davr ilm tili sanalgan arab tilida, shuningdek, arab yozuviga asoslangan turkiy, eroniy tillarda ham faoli kechganligini kuzatish mumkin.

Hozirgi davrga qadar yetib kelgan qo'lyozma asarlarda qisqartmalar ko'plab uchrashi bir qancha asoslarga ega. Masalan, muayyan bir asar bir nechta usta xattotlar tomonidan tez va chiroyli tarzda bir asarni bir necha nusxada ko'chirish zaruriyati sababli qisqartmalardan foydalanishga zarurat

paydo bo'la borgan bo'lsa, ikkinchidan, mazkur hodisa vaqt va til tejamkorligi evazi tufayli ham yuzaga kelgan.

Ayrim manbalarda, jumladan, 1995-yilda nashr etilgan “O'zbek adabiy tili tarixi” darsligida eski o'zbek tilida (arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida) qisqartma otlar qo'llanilmaganligi aytiladi. Unda qisqartma va so'z birikmalari rus tili ta'siri asosida XX asr boshlaridan e'tiboran qo'llanilganligi e'tirof etiladi. Dastlab qisqartmalar “akronim qisqartmalar” deb yuritilgan. Rus tilidan o'zlashtirilgan bu usul turli tashkilot va muassasalarning nomlari hamda maxsus ijtimoiy-siyosiy va ilmiy terminlarni bildiruvchi tarkibli otlarni ixchamlashtirish uchun qo'llaniladi (Masalan: *Samarqand davlat universiteti – SamDU* tarzida va b.) [5, 89].

Qisqartma so'z yoki so'z birikmalarining kundalik hayotimizning barcha sohalarini qamrab olayotganligini har qadamda kuzatish mumkin. Kuzatishlar ko'rsatadiki, qisqartma so'zlar bugungi globallashuv davrida lug'at qatlamimizdan sifat va miqdor jihatad keng o'rin egallamoqda. Bu esa mazkur so'zlar tadqiqi lingvistikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanganligi dalili bo'la oladi.

Yaqin yillarda ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy sohalarda yuzaga kelgan qisqartmalar sirasida STEAM, STEM, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, PhD, DSc, NLP, MT kabi abbreviativ neologizmlarni sanash mumkin. Mazkur qisqartma birliklar lug'at qatlamimizga o'zlashdi[3,68].

“So'z qisqartmasi” ma'noni ifoda etuvchi abbreviatura, odatda, so'z yoki iboradagi harflardan hosil bo'lgan va og'zaki va yozma tilda qulaylik beruvchi lisoniy qo'llanish turidir[4,145]. Shu bilan birga, ko'p so'zli yoki birikmali iboralarning qisqartmasi idora va tashkilotlar nomlarini ifodalashda qulaylik yaratadi. Shuningdek, qisqartma so'z, atama yoki tegishli ismni o'z ichiga olgan bir nechta so'zlar bilan yasalgan qisqartma ramziy belgi sifatida xotirada yaxshi saqlanishi bilan ham xarakter kasb etadi.

Qisqartmalar derivatsion jihatdan quyidagicha tadqiq etiladi:

1. Qisqartirilayotgan so'zlarning birinchi harflaridan tarkib topadi: AKT – Axborot-kommunikatsiya texnikasi, AJ–Aksiyadorlik jamiyati, AITB– Aksiyadorlik innovatsion tijorat banki, OAV–Ommaviy axborot vositalari, OAK–Oliy attestatsiya komissiyasi, IT – “Information technology” axborot texnologiyasi, IHT- Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, FVV–Favqulotda vaziyatlar vazirligi, MCHJ–mahsuloti cheklangan jamiyat, QVZ–Quvnoqlar va zukkolar, XVJ– Xalqaro valyuta jamg'armasi, UZI– Ультразвуковое исследование, UTI – Ultratovush tekshirish, EKG–elektrokardiogramma, YTI–yakka tartibdagi tadbirkor, DTM – davlat ta'lim markazi, IDUM –ixtisoslashtirilgan davlat

umumta'lim maktabi, PM – prezident maktabi, O'ZMMI- O'zbekiston milliy metrologiya instituti, MTT – maktabgacha ta'lim tashkiloti, JSHSHIR – jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasion raqami, STIR (INN)– soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, QQB – Qishloq qurilish bank, SQB–sanoat qurilish bank, JXD – Jamoat xavfsizligi departamenti, VPN–Virtual private network.

2. Qisqartirilayotgan so'zlardan birinchi so'zning bosh bog'ini va qolgan so'zlarning birinchi harfini olish natijasida yasaladi: O'zXDP, O'zMTDP, O'zMMB, O'zDJTU, ToshDO'TAU.

3. Oldingi uch so'zning birinchi bo'g'ini keyingi so'zning bosh harfidan tarkib topadi: O'zLiDeP kabi. Shuningdek, qisqartmalar tarkibidagi so'zlardan ikkinchi so'zning bosh qismi oldingi va keyingi so'zlarning bosh harfini olish orqali ham yasaladi: AYQSH – aholiga yoqilg'i quyish shahobchasi. So'zlarni bunday qisqartirishdan maqsad talaffuzda ravonlik va ixchamlik tufaylidir.

4. Qisqartirilayotgan birinchi so'zning bosh bo'g'ini va ikkinchi so'zni to'liq olish natijasida tarkib topadi: *ekopartiya, ekopark, ekobozor, ekosertifikatsiya.*

5. Oldingi ikki so'zning birinchi bo'g'ini, qolgan so'zlarni to'liq olish natijasida tarkib topadi: *O'zdavenergonazorat, O'zdavyerloyiha, O'zkomnazorat, O'zavtosanoat, O'zavtosug'urta, O'zdavkitobsavdota'minoti* va b.

Oldingi uch so'zning birinchi bo'g'ini, qolgan so'zning to'liq shakli orqali tarkib topadi: *O'zeltexsanoat.*

6. Birinchi so'zning ikki bo'g'ini, ikkinchi so'zning to'liq qismi birikishidan hosil bo'lgan qisqartma so'z: *restobar* (restoran+bar), *motokultivator* (motorli cultivator).

7. Aralash yo'l bilan yuzaga kelish: *O'zavtoyol, O'zkimyofarm, O'zgidromet*

O'zbek tilida chetdan qabul qilingan abbreviaturalar ham uchraydi. Masalan: IELTS, CEFR, PhD, DSc, YUNESKO, FIFA, FIDE, NATO, AES, MMS – multimedia messaging service [8,2]. SMS –short message service (qisqa xabar xizmati). SMM – social media marketing. Pdf – portable document format. ID – identifikatsiya. VIP – Video Image Processor. PIN-kod – Personal Identification Number Code. QR-kod – “quick response code” so'zining qisqarishidan hosil bo'lgan. OLX (англ. Online Exchange – онлайн-обмен). МСНС–Министерство по чрезвычайным ситуациям (favqulotda vaziyatlar vazirligi) [7,1]. Shuningdek, o'zbek tilida qo'llanuvchi ba'zi uz domenli qisqartmalarning chet tilida yozilgan ko'rinishi ham kuzatiladi: *uzcard, uzinfocom, uztelecom, Uzpharminfo, uzreport, uzmobile.* Ba'zida

yangi-yangi shartli qisqartmalar ham paydo bo'lmoqda: tg – telegram, insta, fb – feysbuk, pls – please, net va h.k. Shuningdek, so'zlashuvda *pedfak*, *yurfak*, *inyaz* kabi qisqartirilayotgan so'zlarning bosh qismlaridan tarkib topgan qisqartmalar ham uchraydi. Bular ayrim shevalarda so'zlashuvdagina mavjuddir.

Abreviaturalar mavzuviy turlarga ko'ra bir qancha ko'rinishlarga ega: Xalqaro tashkilotlar nomi: *BMT, YUNESKO, YUNISEF, IHT*.

Siyosiy partiya nomlari: *O'zLDP, O'zXDP, PF*.

Ilmiy-o'quv muassasalari: *BuxDU, O'zDJTU, DTM, TATU, O'zMMI, OXU, PhD pdf, IELTS, CEFR, AKT, FHDY*.

Vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, institut, korxonalar nomlari: *TIV, MFY, O'zMMB(O'zbekiston Milliy media birlashmasi), MTT, OAV, MHTI(Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti), O'zmashxolding*.

Bank nomlari: *SQB, QQB, OTB, TBC(TiBiCI)*

Kompaniya nomlari: *UMS, Uzmobayl, telekom*.

Tibbiyot sohasiga oid nomlar: *UZI, MSKT, MRT, EKG, JSST*.

Sport sohasiga oid nom: *YCHL(Yevropa Chempionlar Ligasi), YL, O'FA*.

Mashina, asbob-uskuna va inshoot nomlari: *Motokultivator, EHM, ATS, GES*.

Brend nom: *LG, H&M, D&G*.

Kompyuter, dastur nomlari sohasiga oid nom: *HTML, DVD, SMM, IT, ID, OLX*.

Ijtimoiy-iqtisod sohaga oid nom: *BHM(Bazaviy hisoblash miqdori), IMV(Iqtisodiyot va moliya vazirligi)*

Xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zaro aloqalar chet tili qisqartmalar (o'zlashmalar) ning kirib kelishi va tilimizda faollashayotganligi kuzatiladi. Hozirda qisqartmalar, asosan, ingliz va rus tilidan to'g'ridan to'g'ri o'zlashmoqda. Masalan:

**Ingliz tilidan o'zlashgan qisqartmalar:** **IT** abbreviaturasi "*information technology*" so'zining qisqargan shakli bo'lib, "axborot texnologiyasi" degan ma'no ifodalaydi. Bu hozirgi kunda keng tarqalgan kompyuter texnologiyasi sohasi hisoblanadi. **Wi-Fi** abbreviaturasi "*wireless fidelity*" so'zining qisqargan ko'rinishi va "simsiz aniqlik" ma'nosini anglatadi. Ushbu qurilma simsiz aloqa o'rnatish texnologiyalari orqali global tarmoqqa kirish imkonini beradi. Hozirda deyarli barcha xonadon, tashkilot va muassasalarda uchraydi. **IELTS** abbreviaturasi "*Internation English Language Testing System*" so'zlarining qisqargan ko'rinishi bo'lib o'zbekcha tarjimai "xalqaro ingliz tili test tizimi" degan ma'noni anglatadi. O'z tili ingliz tili bo'lmagan insonlarning ushbu filni qay darajada bilishini aniqlaydigan

baholash tizimi. **CEFR** abbreviaturasi “*Common European Framework of Reference*” so'zlarining qisqargan shakli bo'lib, chet tilini bilish darajalari tizimi. Chet tilini egallaganlikning umumiyevropa kompetensiyasi sanaladi. **WWW** abbreviaturasi “*The worldwide web*” so'zining qisqarishidan paydo bo'lgan bo'lib, butunjahon o'rgimchak to'ri degan ma'noni anglatadi. Internet tarmog'ida elektron hujjatlar va veb-saytlarga kirish imkonini beruvchi tizim. **IQ**–“*intelligence quotient*” so'zlarining qisqargan ko'rinishi bo'lib, shaxsning aqliy bilimini baholash uchun yaratilgan test nomi.

SMS, MMS, SMM, GPA, e-mail, virus kabilar ham ingliz tilidan qabul qilingan qisqartmalar sanaladi. Umuman, ingliz tilidan o'zlashgan yaqin yillardagi qisqartma so'zlar til lug'at qatlamimizga to'g'ridan to'g'ri yoki rus tili orqali kirib kelmoqda.

**Rus tilidan o'zlashgan qisqartmalar:** **UZI-** “*ультразвуковое исследование*” “ultra-tovushli tadqiqot” degan ma'noni anglatadi. **EKO** – “*экстракорпоральное оплодотворение*” urug'lantirish ma'nosini anglatadi. **MCHS**–“*Министерство по чрезвычайным ситуациям*” bizda mavjud Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV).

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda sun'iy ravishda ham ayrim qisqartma so'zlar yuzaga kelmoqdaki, ular ma'no ifodasi barchaga ham tushunarli emas, balki ayrim shaxslar nutqi uchun xos qisqartmalardir. Albatta ularning taqdirini, ya'ni “yashab qolish yoki qolmasligi”ni shu tildan foydalanayotgan xalq belgilaydi, albatta. Demakki, qisqartma so'zlar taqdirini til egalari belgilaydi. Bu qatorga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: **RShTYIM**–Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, **IIOFMB**–Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, **DYHXX**–Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati, **YHXB**–Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi, **MHTI**–Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institute, **YIDXP**–Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, **BMBM**–Bilim va malakalarni baholash markazi, **O'IHHQJF**–O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati federatsiyasi, **TIQXMMI**– Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute, **MFRB**–migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi, **FJShMQMI**–Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, **ANXTMO'VIBITI**–Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti[7,1]. Shuningdek, **O'KHVPPRTM**–O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, **XTXQTVMOHM**–Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlari kbilar ham bunga misol bo'la oladi.

Bu kabi murakkab nomlarni qulayroq nomlarga almashtirish mutaxassislar uchun u qadar murakkab ish emas, albatta. Bilamizki, har qanday til bilan bog'liq yaratilgan hodisa shu til egalari uchun oson va qulay bo'lishi lozim. Nutqdagi hodisalarning talaffuz va imloda ravon va sodda shaklda bo'lishi, tildan foydalanuvchilar uchun talaffuz qulayligi va aniqligi garovi sanaladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent: Sharq, 2010
2. Бегматов Э. Хозирги узбек адабий тилининг лексик катламлари. - Т.: «Фан», 1985.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019.
4. Husanov N. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi . –Toshkent, 2020.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –Toshkent: Universitet. 2006
6. To'raxo'jayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: Filol.fan.nom.diss,...avtoref. – Toshkent, 2012.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) va internet ma'lumotlari.